

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"
Jizzax davlat pedagogika instituti
rektori Sh.S.Sharipov

2021 yil " " "

**ZAMONAVIY PEDAGOGIKA
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim

**Ta'lim
yo'nalishi:**

60110100 – Pedagogika va psixologiya
(qo'shimcha tarbiy va fani o'qituvchisi)

000010

JIZZAX – 2021

	<p>2. www.edu.uz.</p> <p>3. www.google.uz.</p> <p>4. www.gov.uz.</p>
6.	Zamonaviy pedagogika fanining o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 202__ yil "___" dagi ___-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.
7.	<p>Fan/modul uchun ma'sullar:</p> <p>Rahmatova F Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</p> <p>Uktamova Umida Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasini o'qituvchisi</p>
8.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>To'raqulova I.X A. Qodiriy nomidagi JDFPU Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent</p> <p>Abrorxonova K Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasini mudiri p.f.f.d(PhD), dotsent</p>

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kredittlar
ZamPedM10	2021-2022	3-4-semestr	4
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Majburiy fan	O'zbek	240 soat	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	120 soat 3-semestr Ma'ruza-30 Amaliy-30 Jami-60	120 soat 3-semestr Mustaqil ta'lim 60 soat 4-semestr Mustaqil ta'lim 60 soat	240 soat
2.	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanni o'qitishning maqsadi – Uzulksiz ta'lim tizimi muassasalarini uchun kadrlar tayyorlashda ilg'or pedagogik texnologiyalar alohida ahamiyatga ega. O'quv yurtlari amaliyotida ta'limning yangi pedagogik texnologiyalari va interfaol usullarini qo'llash shu kunning dolzarb muammosiga aylandi. Zamonaviy ta'lim pedagogikasining me'yoriy hujjatlarini talabalarga o'rgatishdan hamda bakalavr talabalarini pedagogik texnologiyaga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.</p> <p>Fanni o'qitishning vazifalari – fanning tarmoqlari, fanning predmeti, metod va metodologiya, ta'limni faol metodlari, nazariy va amaliy fanlarni o'qitishning metodik xususiyatlari haqida tasavvurlarga ega bo'lishi kerak; -talaba o'quv faoliyatini tashkil qilish, boshqarish, faol metodlar, o'quv faoliyati shakllari, ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak; -talaba fanlarni o'qitishning metodik xususiyatlari, o'rta maxsus va oliy ta'limda fanlarni o'qitishning o'ziga xosligi zamonaviy dars jarayoniga metodlarni qo'llash, talabalarni mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish yuzasidan ko'nikmaga ega bo'lishi kerak.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>3-SEMESTR</p> <p>1-mavzu. Kirish. Zamonaviy pedagogikada ta'lim - tarbiyaning mohiyati.</p> <p>Zamonaviy pedagogikaning pedagogika tizimidagi o'rni. Zamonaviy pedagogikaning boshqa pedagogika fanlaridan farqi. Mazkur fanni o'rganishning dolzarbligi.</p> <p>2-mavzu. Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigmasi (model)lari.</p>		

Zamonaviy pedagogikaning mazmuni, shakllari, vositalari modellari ularning o'ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy pedagogikada tarbiya shakllari.

3-mavzu. Hozirgi davr ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Hozirgi zamon an'anaviy ta'limi.

Zamonaviy pedagogika va fanlar o'rtasidagi uzviylik. Ona-tili va adabiyot, tarix va boshqa fanlarni o'rganish jarayonida darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogikani qo'llash. O'qituvchi-o'quvchilar jamoasi va ota-onalar hamkorligida "har bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" xalq hikmatini ta'lim-tarbiyaga joriy etish.

4-mavzu. Zamonaviy pedagogikada yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari.

Zamonaviy pedagogikada tushuntirish, namuna ko'rsatish, ogohlantirish, iltimos qilish, koyish va boshqa bir qator tarbiyalash metodlarining mavjudligi va ulardan yoshlarni tarbiyalashda foydalanish yo'llari. Zamonaviy pedagogika va avlodlar vorisligi.

5-mavzu. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi.

Kreativ shaxs bo'lish, bizning misolimizda esa, kreativ o'quvchi bo'lish – bugungi dunyoda afzalliklarga ega bo'lish, masalan, boshqa o'quvchilar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq subhatdosh bo'lish, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy tarzda chiqib ketish demakdir.

6-mavzu. Zamonaviy pedagogikada fanlar integratsiyasi.

Fan o'qitishidagi integratsiya buyicha ularning taklifi tashqi birikish xarakterga ega, aslida esa fanlarni integratsiyalashni chuqur metodologiya asosida o'tkazish zarur. YAngi rivojlanayotgan fan mazmunida turli falsafiy oqimlarda paydo bo'lgan g'oya va metodlar birlashuvi ehtimoli bor. Ta'lim falsafasi tomonidan nafaqat tabiiy moslashuv, balki kontinental moslashuv ham o'zlashtirilmogda.

7-mavzu. Zamonaviy pedagogikada barkamol shaxsni tarbiyalash.

Insonning individual, shuningdek, tarixiy rivojlanishining turli bosqichlaridagi xususiyatlarini aks ettirish uchun "indivud" tushunchasi bilan birga "shaxs" tushunchasi ham qo'llaniladi. Bu o'rinda "indivud" shaxs sifatida shakllanishga yo'naltirilgan inson sifatida qaraladi. Shaxs – indivud rivojlanishining yakuni, barcha insoniy fazilatlarining to'la namoyon bo'lishidir.

8-mavzu. Zamonaviy pedagogikada o'qituvchi shaxsining o'quvchilar bilan fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari.

O'qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o'quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo'lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi. O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq boigan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud.

9-mavzu. Ta'limda pedagoglarning malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvi.

O'zi mustaqil mutolaa qilish, o'qish asosida bilim olishga, o'zini-o'zi anglab

5.

VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni. — T.: 2020

Asosiy adabiyotlar

1. Z.F. Sharopova. Ta'lim texnologiyalari. "Navro'z" nashriyoti. T.:2019, 342 bet.
2. Raxmatova F.A. To'raqulova M.A. O'qituvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishning pedagogik asoslari. "Lesson press" nashriyoti. T.:2022, 158 bet.
3. B. Qurbanov, R.G. Isyanov, G.B. Kurbanova, A.I. Avazbayev. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi. "Innovatsiya-Ziyo" T.:2022, 255 bet.
4. M.F. Hakimova. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: Nazariya va amaliyot. — Toshkent-2018.

Qo'shimcha adabiyotlar


5. Musayeva M. E, Shodiyeva G. M. Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida interfaol darslarni tashkil etish. "Zamonaviy ta'lim" 2015, 7.
6. Mutalipova M.J. Zamonaviy pedagogika — T.: "Fan va texnologiya", 2015, 160 bet.
7. Haydarova G.A., Pardayeva K.U., Gapparov B.N. Xalq pedagogikasi. — T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2009 yil.
8. K. Hoshimov, S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. — T.: O'qituvchi, 1995.
9. Davronov P.Z. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Samarqand-2008. 31 yanvar
10. Axmad Yassaviy. Ibroxim Haqqul. — T.: Gafur G'ulom nashriyoti, 2001 yil.
11. A.Xolliqov. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent.: Iqtisod-moliya. 2010
12. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
13. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanoib xalqimiz bilan birga quramiz". "O'zbekiston", 2017.
14. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
15. Abdurauf Fitrat. "Oila yoki uni boshqarish tartiblari" — T.: Ma'naviyat, 2000 y.
16. Karimova O. Oilaning huquqiy asoslari — T.: "O'qituvchi" 2003 y.

Internet saytlari:

1. www.zivonet.uz.

o'z navbatida tarmoqlarga ajralishi mumkin.

Venn diagrammasi O'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslash, o'xshash va farqli jihatlarni topish, tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Diagrammadagi doirachalar alohida ob'ektni, kesishmalar esa ularning o'xshash va bog'liq jihatlarni bildiradi. Talabdan ob'ektlarning alohida (1-3), o'zaro bog'liq (4-6) va umumiy (7) jihatlarni yozma ifodalab berish talab etiladi.



4) SWOT-tahlil. Bu organayzer talabalarda tizimli fikrlash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. SWOT atamasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi: Strengths – ob'ektning kuchli jihatlari; Weakness – kuchsiz jihatlari; Opportunities – tashqi imkoniyatlari; Threats – tashqi xavf-xatarlari. Talaba yangi qatordan S, W, O, T harflarini yozib yoniga ob'ektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar.

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ismi topshirish.

ZAMONAVIY PEDAGOGIKA

fani bo'yicha talabalar bilimni baholash va nazorat mezonlari

№	Nazorat turlari	Ajratilgan ballar		
		Nazorat o'tkazish muddatlari (har bir modul yakunitdan nazorat o'tkaziladi)	Eng yuqori ball	Umumiy ball
1	Joriy nazorat (fan 6 moduldan iborat)	1 modul	5	30
		2 modul	5	
		3 modul	5	
		4 modul	5	
		5 modul	5	
2	Oraliq nazorat	6 modul	5	20
		Oraliq nazorat	20	
3	Yakuniy nazorat	Yakuniy nazorat	50	50
		Jami		

Izoh: 1-JN (1-3-modul) Jami ball- 15 ball
 2- JN (4-6-modul) Jami ball- 15 ball
 1-ON Jami 10 ball
 2-ON Jami 10 ball

yetishga, o'z kuch va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga, o'quv mehnatiga ma'suliyat bilan qarashga, har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga.

10-mavzu. Zamonaviy pedagogikada ta'limga texnologik yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi, ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi va o'quv metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o'quvchi shaxsi o'quv-biluv markazida bo'ladi.

11-mavzu. Zamonaviy pedagogikada kompyuterli o'qitish texnologiyasi.

Ta'limning texnologik asosini zamon talablari darajasida rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon yengillashadi, dars jarayonini zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etish uchun maxsus malakalar shakllantiriladi.

12 – mavzu: Zamonaviy pedagogikada elektron qo'llanmalar turlari xususida.

Kompyuter vositasida ta'limiy til o'rganish bo'yicha turli o'yin shakllida yaratilgan dasturlar vositasida tuzilgan kompozitsiyani yozib ko'rsatish yoki so'zlab berish taklif etilishi, yoki oldindan ajratib olingan rasmlar yordamida ma'lum vaziyatni yaratish so'ngra o'sha kompozitsiyani so'zlab berish kabildan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

13-mavzu. O'qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o'rni.

Davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash jarayonlarining harakatga keltiruvchi kuchi, O'zbekistonning bugungi va istiqboldagi izchil taraqqiyotining bosh omili bo'lgan inson ma'naviyati va salohiyatini yakunlatirishda o'qituvchilarning tajribasi va mahoratini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

14 – mavzu: Zamonaviy ta'lim muammolari (Boshlang'ich ta'lim misolida)
 Bola maktabda mo'jizakor olam yangiliklari bilan tanishadi, hayot haqidagi hi stuyg'ularini boyitadi, iroda va xarakterini tarbiyalaydi, o'rtoqlari, katta yoshdagilar bilan muloqotda bo'lishga o'rganadi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
 Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kiritib tashkiliy ishlarni o'tkazadi, auditoriyani darsga tayyorgarligi yozish va o'cherish vositalarining mavjudligi hamda o'quvchilarning davomati aniqlanadi. Amaliy mashg'ulot darslarida savol-javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiradi.

Amaliy mashg'ulotda ko'proq talabalar guruhini bir nechta kichik guruhlarga ajratib o'qitishning aqliy hujum, bahs-munozara, suhbat metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar talabalarni mavzu yuzasidan ko'proq mustaqil fikr yuritishga, o'z fikrini bayon etishga undaydi. Darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, diqqatlarini jamlashga o'rgatadi. Bundan tashqari amaliy mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir

talabaning faoliyatini togri va xolisona baholashga erdishi zarur. Shuningdek, baholarni e'lon qilib faol o'quvchilarning familiyalarini aytib rag'batlantirishi va aksincha passiv, nutqi rivojlanmagan yoki uyatchan talabalarga yengil tanbeh berishi ham muhim ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulot darslarini dastur bo'yicha sifatli o'tilishini talabalar bilimining o'z vaqtida adolatli va xolisona baholanishini fandan ma ruza olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek amaliyot o'qituvchisi bilan dastur bajarilishi uchun amaliy darslarda nimalarga alohida e'tabor qaratilishi, ma ruzada mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko'proq yoritilgani va boshqa o'quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib fikrlashib turishlari lozim.

III.1. Amaliy mashg'uloti mavzulari va rejasi

1. Zamonaviy pedagogikada ta'lim - tarbiyaning mohiyati.
2. Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigmasi (modeli) lari.
3. Hozirgi davr ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Hozirgi zamon an'anaviy ta'limi.

4. Zamonaviy pedagogikada yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari.

5. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi.

6. Zamonaviy pedagogikada fanlar integratsiyasi.

7. Zamonaviy pedagogikada barkamol shaxsni tarbiyalash.

8. Zamonaviy pedagogikada o'qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari.

9. Zamonaviy ta'limda pedagoglarning malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvi.

10. Zamonaviy pedagogikada ta'limga texnologik yondashuvi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

11. O'qituvchi pedagogik faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

12. Zamonaviy pedagogikada elektron qo'llanmalar turlari xususida.

13. O'qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o'rni.

14. "Zamonaviy ta'lim muammolari" (Boshlang'ich ta'lim misolida).

4-SEMESTR

1 – mavzu: Zamonaviy pedagogikada "Ustoz-shogird" maktabini tashkil etish va amalga oshirish mexanizmi.

"Ustoz-shogird" maktabi, "Yosh o'qituvchilar maktabi", "Ilg'or tajriba maktabi" kabi metodik ishlarini tashkil etish ko'p yillardan buyon maktab tajribasida qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, oliy o'quv yurtini bitirib, endigina maktabda faoliyat boshlagan "Yosh mutaxassis"ni jamoadagi tajribali o'qituvchiga 3 yil davomida birkirib qo'yish tajribasi ham mavjud.

2 – mavzu: Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati.

Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil

3.

V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar.

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

ta'lim mashg'ulotlarida talabalar Zamonaviy pedagogika fani predmetiga oid bilimlarni o'zlashtirib borishlari yuzasidan olib boriladigan ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish va mustaqil ishlash metodikasi tufayli talabalar fandan mukammal bilim oladilar, pedagog kasbini egallash uchun jiddiy tayyorgarlikdan o'tadilar.

-ta'lim mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida talabalar tavsifiya qilingan adabiyot materiallarini qunt bilan o'rganib chiqishi, oliy ta'lim pedagogikasi muammolariga doir ma ruza yoki referat tayyorlashi; amaliy topshiriqlarni bajarishi, rivojlanishi, yangilanish va modernizatsiya jarayonlari haqidagi *bilimga*;

Talaba mavzuni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsifiya etiladi:

-darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish olish ko'nikmalariga;

-tarqatma materiallar bo'yicha ma ruzalar qismini o'zlashtirish;

-maksus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzular ustida ishlash;

talabaning o'quv- ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlarbo'limlari va mavzularni chuqur o'rganishi bildiradi olishni *malakalariga ega bo'ladi*.


VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

Grafik organayzerlar

Grafik organayzerlar ma ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida talabalar o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishlari uchun joriy etiladi. Quyida ularning ba'zilarini keltirilgan.

1) **BBB jadvali.** Barcha ma ruza darslarida qo'llaniladi. BBB usuli ("bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim") orqali talaba o'zini kuzatishi, o'qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Talaba dars boshida mavzu bo'yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishini xohlashini (B2) daftariga yozib qo'yadi. Dars so'ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo'yadi.

2) **Insert usuli.** Bu usul matnmi o'zlashtirishda qo'llaniladi. Talaba sahifa hoshiyasiga o'z belgilarini qo'yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: "v" – zarur; "–" –



3) Klaster sxemasi

Bu usul fikrni erkin bayon qilish uchun qo'llaniladi. Masalan, talaba o'tilgan mavzu bo'yicha klaster tuzishi mumkin. O'rtiga kalit so'z, tarmoqlarga unga bog'liq boshqa atamalar yoziladi. Ular ham

2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati
3. Zamonaviy Pedagogika tizimlarining ilmiy metodologik asoslari
4. Zamonaviy pedagogikada o'qituvchining pedagogic texnikasini egallash mahorati.

5. Zamonaviy ta'limga tushuntiruv-tasviriy yondashuv
6. Zamonaviy pedagogikada test topshiriqlarini shakllanishi
7. Oilada farzand tarbiyasida odob – ahloq o'rni
8. Zamonaviy pedagogikada o'qituvchilar Ota-onalar bilan ishlash faoliyati.
9. Zamonaviy pedagogikada o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari
10. Zamonaviy pedagogikada talabalarni mustaqil ta'limni tashkil etishda dasturiy didaktik majmuani o'rni va ahamiyati
11. Zamonaviy pedagogikada zamonaviy o'qituvchining pedagogik mahorati va pedagogik burchi
12. Zamonaviy pedagogikada Darslarga kirish va uni tahlil etish zarurati
13. Ta'lim jarayonida yangi metod va usullardan foydalanish
14. Zamonaviy pedagogikada tabiat va inson munosabatlari, sog'lom turmush tarzining ifodalaniishi

IV.2. Mustaqil ta'limni o'zlashtirish tartibi.

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar - bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim shakllari

Talabalarning mustaqil ta'limi har bir modul bo'yicha o'qituvchi rahbarligida (O'RTMI) va mustaqil tarzda (TM) quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi.

O'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi (O'RTMI)

Ushbu fanda me'yoriylashtirilmaydigan O'RTMI shakllari rejalashtirilgan bo'lib, ular har bir amaliy mashg'ulot bo'yicha yakuniy hisobot shaklida qabul qilinadi. O'RTMI amaliy mashg'ulotda yoki undan keyin amalga oshirilishi mumkin. Har bir amaliy mashg'ulotdan so'ng masofaviy ta'lim platformasida O'RTMI uchun o'qituvchining maslahat darslari tashkil etiladi.

Ushbu fanda masofaviy ta'lim platformasida quyidagi O'RTMI shakllarini qo'llash nazarda tutilgan:

- 1) Q/A (savollarga cheklangan hajmda javob yozish).
- 2) Chart (jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish).
- 3) Link (Internet-havolaga annotatsiya yozish).
- 4) Review (berilgan manbaga shart yozish).
- 5) SWOT (muammoni SWOT-tahlil qilish).
- 6) Google Apps (Google ilovalarda guruh bo'lib hujjat, jadval, prezentatsiya va testlar tayyorlash).
- 7) Interview (boshqalarning muammoga nisbatan fikrini o'rganish).
- 8) LabReport (laboratoriya ishlari bo'yicha hisobot tayyorlash)

etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda: Interfaol metodlar: «Keys-stadi» (yoki «O'quv keyslari»), «Bits-so'rov»), «Modellashtrish», «Ijodiy ish», «Munosabat», «Reja», «Subhat» va b. Strategiyalar: «Aqliy hujum», «Bumerang», «Galereya», «Zig-zag», «Zinamaza», «Muzyorar», «Rotatsiya», «T-jadval», «YUmaloqlangan qor» va h.k. Grafik organayzerlar: «Baliq skeleti», «BBB», «Konseptual jadval», «Venn diagrammasi», «Insert», «Klaster», «Nima uchun?», «Qanday?» va b.

3 – mavzu: Zamonaviy Pedagogika tizimlarining ilmiy metodologik asoslari.

Pedagogika faniga tavsif berilganda «ta'lim», «tarbiya», hamda «ma'lumot» degan so'zlarni ishlatdik. Bu so'zlar o'zaro bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Ularni pedagogikaning asosiy kategoriya-tushunchalari deb nomlaymiz. Bular: tashqari «o'quvchi», «o'qituvchi», «metod», «intizom», «jamoaa», «irsiyat», «muhit», «direktor» kabi tushuncha-nomlar mavjudki, bu haqida mavzular yuzasidan fikr yuritilganda alohida to'xtaymiz.

4–mavzu: Zamonaviy pedagogikada o'qituvchining pedagogic texnikasini egallash mahorati.

O'qituvchining tashqi ko'rinishi pedagogik texnikasini namoyon etuvchi muhim xususiyatlaridan biridir. Har qanday insonning tashqi ko'rinishi atrofodlarga estetik ma'no va zavq kash etib, doimiy e'tiborda bo'lishini unutmilik kerak. O'qituvchining tashqi ko'rinishini asosan namoyish etuvchi muhim xususiyatlari uning chehrasidagi mehribonlik, jiddiylik, yurishida bosqlik, tabiiylikdir. O'qituvchi sinfga kiritishi bilan so'zsiz o'quvchilar e'tiborida bo'ladi, ular bilan muloqotga kirishadi.

5 – mavzu: Zamonaviy ta'limga tushuntiruv-tasviriy yondashuv.

Ta'limda an'anaviy yondashuvlar qatoriga tushuntiruv-tasviriy, reproduktiv usullar kiradi. Tushuntiruv-tasviriy yondashuv, asosan, o'qituvchining axborot berishi, talabalarning bu bilimni qabul qilishlari, tuplashlari va xotirada sakdahlari bilan belgilanadi.

6 – mavzu: Zamonaviy pedagogikada test topshiriqlarini shakllanishi.

Nazorat topshiriqlarini ishlab chiqishda test topshiriqlaridan foydalaniladi. Mutaxassislik fanlarida kullandigan testlar ikki xil buladi: erkin javobli (ieventiv) va tanlanma javobli (elektiv).

7- mavzu: Oilada farzand tarbiyasida odob – ahloq o'rni.

Oilada, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. «Bir bolaga etti qo'shni ota-ona» degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi.

8–mavzu: Zamonaviy pedagogikada o'qituvchilar Ota-onalar bilan ishlash faoliyati.

Ota-onalar sinf majlisini tashkil qilish metodikasi har bir o'quv yilining boshida o'tkaziladigan ota-onalarning sinf majlisini ilmiy, nazariy, ma'naviy va metodik jihatdan mazmunan tashkil qila bilish ota-onaning bunday majlislarni orziqib kutib doimiy qatnashuvchi bo'lishiga zamin hozirlaydi. Bunda majlis

o'qituvchidan ko'p bilim va mahorat talab etadi.

9 – mavzu: Zamonaviy pedagogikada o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari.

O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari — o'quv materialini mazmunining xarakteri va manti- kini yoritish usulidir. O'qitishning induktiv metodi — o'qituvchi va o'quvchining turli variantlardagi faoliyatidir.

10 – mavzu: Zamonaviy pedagogikada talabalarni mustaqil ta'limni tashkil etishda dasturiy didaktik majmuaning o'rni va ahamiyati.

Talabalarning mustaqil bilim olishini yo'lga qo'yish natijasida dars jarayoni samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini ko'tarish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, uning ta'lim berish jarayonini to'g'ri tashkil eta olishiga bog'liqdir.

11 – mavzu: Zamonaviy pedagogikada zamonaviy o'qituvchining pedagogik mahorati va pedagogik burchi. «Pedagogik texnologiya», «YAngi pedagogik texnologiyalar», «Zamonaviy pedagogik va interfaol texnologiya», «Axborot va innovatsion texnologiyalar», «Ta'lim texnologiyasi», «Texnika», «Mahorat», «Axborot texnologiyasi», «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari», «Ta'lim metodlari», «Tarbiya metodlari», «Pedagogik mahorat» kabi atamalar, tushunchalar, maxsus va tanlov kurslari, o'quv predmetlari shakllanishi

12 – mavzu: Zamonaviy pedagogikada Darslarga kirish va uni tahlil etish zarurati.

O'quvchilar o'qituvchining bo'sh tomonini tez anglaydilar. SHuning uchun, u hadiksirab emas, balki o'qituvchi hurmatini joyiga qo'yib munosabatga kirishishi mumkin. Bunday muhitni va O'quvchilarning ruhiy kayfiyatini o'qituvchi ba'zan sezmaydi. O'quvchilar o'qituvchining ijodiy faoliyatini har doim kuzatib boradi. Ular undan iliq so'z, mehr va muruvvat kutadilar.

13 – mavzu: Ta'lim jarayonida yangi metod va usullardan foydalanish.

Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

14-mavzu: Zamonaviy pedagogikada tabiat va inson munosabatlari, sog'lom turmush tarzining ifodalanishi.

Zamonaviy pedagogikada tabiat va inson munosabatlari. Xalq tabobati. Xalq tabobati va sog'lom turmush tarzining ifodalanishi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

4-semestr

Amaliy mashg'ulot mavzulari va rejai

1. Zamonaviy pedagogikada “Ustoz-shogird” maktabini tashkil etish va amalga oshirish mexanizmi

2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati.

3. Zamonaviy Pedagogika tizimlarining ilmiy metodologik asoslari.

4. Zamonaviy pedagogikada o'qituvchining pedagogik texnikasini egallash mahorati.

5. Zamonaviy ta'limga tushuntiruv-tasviriy yondashuv.

6. Zamonaviy pedagogikada test topshiriqlarini shakllanishi

7. Oilada farzand tarbiyasida odob – ahloq o'rni.

8. Zamonaviy pedagogikada o'qituvchilar Ota-onalar bilan ishlash faoliyati.

9. Zamonaviy pedagogikada o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari.

10. Zamonaviy pedagogikada talabalarni mustaqil ta'limni tashkil etishda dasturiy didaktik majmuaning o'rni va ahamiyati.

11. Zamonaviy pedagogikada zamonaviy o'qituvchining pedagogik mahorati va pedagogik burchi.

12. Zamonaviy pedagogikada Darslarga kirish va uni tahlil etish zarurati.

13. Ta'lim jarayonida yangi metod va usullardan foydalanish.

14. Zamonaviy pedagogikada tabiat va inson munosabatlari, sog'lom turmush tarzining ifodalanishi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

3-semestr

1. Zamonaviy pedagogikada ta'lim - tarbiyaning mohiyati.
2. Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigma (modeli) lari.
3. Hozirgi davr ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Hozirgi zamon an'anaviy ta'limi
4. Zamonaviy pedagogikada yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari.
5. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi
6. Zamonaviy pedagogikada fanlar integratsiyasi
7. Zamonaviy pedagogikada barkamol shaxsni tarbiyalash.
8. Zamonaviy pedagogikada o'qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari.
9. Zamonaviy ta'limda pedagoglarning malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvi
10. Zamonaviy pedagogikada ta'limga texnologik yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash
11. Zamonaviy pedagogikada kompyuterli o'qitish texnologiyasi
12. Zamonaviy pedagogikada elektron qo'llanmalar turlari xususida
13. O'qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o'rni.
14. Zamonaviy ta'lim muammolari (Boshlang'ich ta'lim misolida)

4-semestr

1. Zamonaviy pedagogikada “Ustoz-shogird” maktabini tashkil etish va amalga oshirish mexanizmi.